

**PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA QO‘LLANILGAN
HARBIY LEKSIKA****Nazarov Zokir Muxammad o‘g‘li**

Termiz davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi.

Telefon: +998-93-761-65-66. Email: znazarov@tersu.uz<https://doi.org/10.5281/zenodo.15398937>

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi zamon o‘zbek tilshunosligidagi kam o‘rganilgan muammolardan biri – Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida qo‘llanilgan harbiy leksikaning qo‘llanilishi, uning ma‘nosi, tarkibi kelib chiqishi kabi jihatlarini yoritishni maqsad qildik.

Kalit so‘zlar: yasol, chapovul, chag‘dovul, shakovul, kitpovul, yonkovul, shig‘ovul, yasovu, birqol, navkar, o‘lja, dubulg‘a, sadoq, jiba- jeba, mergan, kamon, qalqon, tup, tufang, xanjar, chakra, tug‘bardor, chavondozlar, yigitlar, beklar, navkarlar, askarlar, tufangdozlar, piyodalar.

“Yulduzli tunlar” romani hozirgi zamon kitobxoniga mo‘ljallab yozilgani tufayli, uning tili, tabiiy, hozirgi o‘zbek adabiy tilining normalarini o‘zida to‘liq aks ettirgan. Shuning bilan birga, bu asar tarixiy mavzuda yozilganligi sababli unda tasvirlanayotgan davr adabiy tilining uziga xos eng xarakterli turli belgilari uz in‘ikosini topmasligi mumkin emas edi. Buni biz asar tilining leksikasida, ayniqsa, yaqqol ko‘ramiz. Asar tili leksikasining eng xarakterli qatlamlaridan biri harbiy atamalardir.

Ma‘lumki, romanda Bobur faoliyatining eng salmoqli qismi – uning to‘xtovsiz harbiy yurishlari goh g‘animni yengib, g‘alaba nashidasini surishi, goh yengilib mag‘lubiyat alamini chekishi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik ko‘plab voqea-hodi- salar aks ettirilgan.

Avvalo shuni aytish kerakki, romanda qo‘llanilgan harbiy atamalar, turli so‘z va iboralar harbiy harakatlar bilan bog‘lik bo‘lgan predmet va tushunchalarni ifodalovchi leksik elementlardir. Bunday elementlar XIV-XVI asrlar eski o‘zbek adabiy tilida, jumladan, “Boburnoma” tilida xam mavjud edi. Lekin «Boburnoma»da Bobur tomonidan ishlatilgan harbiy atamalarning barchasi Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida to‘lig‘icha aks etgan deb bo‘lmaydi. Romanda biz ularning ayrimlarinigina uchratamiz.

Roman tilida ishlatilgan harbiy so‘z va atamalar harbiy faoliyatning turli sohalariga daxldor bo‘lib, ularning bir qismi kelib chiqishi jihatidan mug‘ulcha yoki turk va mug‘ul tillari uchun mushtarak bo‘lgan so‘zlar ekanligi bilan xarak- terlanadi. Qolaversa, XIV-XVI asrlarda eski o‘zbek tilida iste‘molda bo‘lgan, Alisher Navoiy va Bobur asarlarida aks etgan harbiy atamalarning ko‘pchiligi Amir Temur faoliyati bilan bog‘liq Amir Temur o‘z qo‘shinida yangicha qonun-qoida- larni, tartib-intizomni joriy etish bilan birga, qo‘shinga Chingizxon armiyasida mavjud bo‘lgan va o‘sha davr uchun namuna hisoblangan askariy tizimni olib kirdi. Shuning natijasida ko‘pgina harbiy tushunchalar mug‘ulcha terminlar bilan atala boshladi. Bobur xam o‘z “Boburnoma”sida ana shunday asli mug‘ulcha harbiy terminlardan, an‘anaga ko‘ra, foydalandi. U bu sohada yangilik ham qildi. Avvalo, Bobur lashkarga tartib berish, qismlarni joylashtirish, urushga tayyorlash, hujum qilish usullari, ularni nihoyasiga yetkazish kabi ishlarni bajarishda harbiy yurishlarda doimo o‘zi bilan birga bo‘lgan Shayx Zaynning “Fathnoma” nomli asaridan o‘qib o‘rgangan.

U yozadi: "...chun bu "Fathnoma"dan islom cherikining kayfiyati va kuffor xaylining kamiyyati, sufuf va yasolning turushlari va ahli islom va ahli kufrning urushlari mushaxxas va ma'lum bo'lub, ul jihattin beziyoda nuqson ushul (BN, 366).

Ikkinchidan, Bobur harbiy qismlarning joylashish tartibi, tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni terminlar bilan atashda ilgaridan, Temur davridan davom etib kelgan an'anaga yangiliklar kiritdi. Bunday yangilik nimalardan, iborat ekanligi to'g'risida Boburning o'zi shunday ma'lumot bergan: "Agarchi brongor va o'ng ko'l va o'ng yon bir ma'nosi bor, vale alfoz tag'yiri bila tashxis muxtalif ma'niyga men itlok qildim. Nechukkim, maymana va maysarakim, brongor va jvong'or derlar, yasolda qalbningkim, gul devlar, dohili emas. Munda bu nav yasolni ushul sarofate bila brong'or va jvong'or deyildi. Yana zulkim, boshka yasoldur, shuning yamin va yasorini imtiyoz uchun o'ng qo'l, so'l ko'l bitildi. Yana guldakim, xossa tobindur, shuning yamin va yasorini o'ng yon va so'l yon aytili. Yana xossa tabindakim, bo'y tengidur, turki lafzida mutarradni xam bo'y derlar, shunda ul bo'y murod emasdur, yaqin murodtur, shuning yamin va yasorni ung va sud ataldi" (BN, 272 — 273).

Boburning bu ma'lumotidan shu narsa ayonki, Bobur qo'shin tuzilmasi tarkibiga kiruvchi qism (bo'lak)larni alohida-alohida terminlar bilan atagan. Jumladan, qo'shin tarkibiga kiruvchi qismlarning saf-saf qilib joylashtirish, tuzilish tartibi **yasol** deyilsa, shu yasolda uch xil **gul** (qalb, markaz, yadro) buladi. Birinchi gulning o'ng va so'l tarafida joylashgan qismlar brangor (**burong'or**) va **jvang'or** (**juvong'or**) deyiladi. Ikkinchi bir gulning o'ng va so'l tarafida joylashgan qismlar o'ng qo'l va **so'l qo'l** deyiladi. Yana bir gulrezervning o'ng va so'l tomoni **o'ng yon** va **so'l yon** deyiladi. Yana bir gulniki **o'ng** va **so'l** deb ataladi.

Harbiy tushunchalarni ifodalovchi turkcha-mugulcha terminlar orasida -vul va -l qo'shimchalari bilan yasalgan atamalar alohida bir guruhni tashkil qiladi. Turk va mug'ul tillari uchun mushtarak bo'lgan -vul qo'shimchali so'zlar eski o'zbek tilida asosan XI-XII asrlarda paydo bo'ldi. Nemis olimi Gerxard Dyorfer shu qo'shimcha bilan yasalgan so'zlar eski o'zbek tilida 100 tadan ortik ekanligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn»da -vul qo'shimchali so'zlardan bir nechasini misol qilib keltirib, ular asosan saroy mansablarini va harbiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ekanligini ko'rsatgan. Jumladan:

Hirovul // **irovul** — ilgor otryad, qo'shinning oldida boruvchi qism, avangard.

Chag'dovul / **changdovul** / **chindovul** — qo'shinning oxirida boruvchi qism, aryergard. "Boburnoma"da yana "**aryergard boshligi**" degan ma'noda xam ishlatilgan.

Chapovul — qo'shinning ung qanoti (burong'or).

Shakovul — qo'shinning so'l qanoti (juvong'or).

Kitpovul / **kriptovul** — kal'a boshlig'i, komendant, qurg'on soqchisi.

Yonkovul — qo'shin qanotini himoya qiluvchi otryad.

Daqovul — pistirma, pistirmada turuvchi.

Shig'ovul — podsho saroyidagi qabul marosimlarini boshqaruvchi katta amaldor, qabulga elchilarni olib kiruvchi.

Yasovul — saroyga kirgan-chiqqanlarni nazorat qiluvchi, boshqaruvchi.

Shular qatoriga «Boburnoma»da uchraydigan **qorovul**, **jangdovul**, **tutkovul**, **bakovul** kabi so'zlarni xam qo'shish mumkin.

«Yulduzli tunlar» romanida esa -vul qo'shimchali yuqorida ko'rsatilgan so'zlardan faqat **bakovul** (28, podshoh oshxonasining mas'ul xodimi), **chig'ovul** (65), **yasovul** (106), **jangdovul** (211), **shig'ovul** (255), **qorovul** (283) so'zlari ishlatilgan. Ayrim o'rinlarda shu so'zlarning ekvivalentlaridan foydalanilgan.

Masalan, **o'ng qanot** (240), **chap qanot** (240), **markaz** (240), **ilg'or** (242), **yurtchi** (261), **tilchi** (419), **ung** (454), **so'l** (454).

Turk va mug'ul tillari uchun umumiy bo'lgan harbiy atamalar orasida -I qo'shimchasi bilan yasalgan so'zlar xam borki, bularning ba'zilar «Boburnoma»da bo'lganidek, romanda uz sinonimi bilan almashinib ishlatilgan. Masalan, **yasol** va **saf**: Ibrohimning harbiy fillar himoyasiga tayanib urishadigan qo'shinida piyodalar ko'pligi va **saflar** tig'iz bo'lishi ma'lum edi(453). Hech kim buyruqsiz qo'zg'almasin, **yasol** buzilmasin!- deb hammani qattiq tutib turardi (453).

Ammo o'sha davr tilida faol iste'molda bo'lgan shu tipdagi, ya'ni -I bilan yasalgan **birqol** (pistirma), **tusqol** (soqchi, qorovul), **suyurg'ol** (in'om, sovg'a), **tunqol** (qo'shinning belgilangan joyga tuplanishi haqidagi xabar), **kunbul**, **kumbul** Qo'shin qanotlarini dushman hujumidan himoya qiluvchi harbiy qism, otryad), budol (qo'shin dam oladigan joy) kabi so'zlar roman tilida uchramaydi. Ular o'rnida shu tushunchani ifodalay oladigan va hammaga tushunarli o'zbekcha so'zlardan foydalanilgan.

Romanda ishlatilgan **navkar**, **o'lja**, **dubulg'a**, **sadoq**, **jiba- jeba**, **mergan** kabi mug'ulcha harbiy atamalarni hisobga olganimizda xam, muallif o'sha davr adabiy tilida iste'molda bo'lgan mug'ulcha-turkcha harbiy atamalardan ayrimlarinigina asar lug'at tarkibiga kiritib, voqea-hodisalar, ayniqsa, urush

harakatlari bayonida va personajlar nutqida o'rinli bera olgan.

Aslida XIV-XVI asrlar eski o'zbek tili leksikasiga xos bo'lgan va Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani tilida ham aks ettirilgan harbiy tushunchalarni ifodalovchi so'z va iboralardan yana qo'yidagilarni ko'rsatish mumkin:

Qurol-yarog' nomlari: **o'q**(yoy uki, nayza), **oybolta**, **tig'**, **kamon**, **qalqon**, **tup**, **tufang**, **xanjar**, **chakra** (hindlarning oltita keskir titi bor quroli), **chuqmor** (gurzi), **tura** (qalqonning bir turi) va boshqalar.

Muhofaza kiyim-kechak nomlari: **dubulg'a**, **jiba**, **zirhli kiyim** va boshqalar.

Harbiy faoliyatning yana boshqa sohalariga tegishli tushuncha va predmetlarni ifodalovchi so'zlar: **xufiya** (josus, razvedkachi), **chopar**, **masof** (ochik joyda yuzma-yuz olishish), **tabl**, **naqora**, **karnay**, **g'anim**, **yov**, **yog'iy** (dushman), **tug'** (bayroq), **to'lg'ama** (kurshov), **tug'bardor**, **chavondoqlar**, **yigitlar**, **beklar**, **navkarlar**, **askarlar**, **tufangdoqlar**, **piyodalar**, devor, xandak, arava (keyingi uch so'z muhofaza inshootlarining nomi), **borut**, **xossa tobin** (rezerv), **quvginchi**, **uron** (parol), **chopqinchi**, **nasas** (dushman kelsa, urush xotirxoz qiluvchi) va boshkalar.

REFERENCES

1. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o'zbek tili. (leksikologiya). O'quv qo'llanma / – T.: "Firdavs-shoh nashriyoti", 2021. –380 b.
2. P. Qodirov Yuluzli tunlar / romon / "Adabiy barhayot asarlar" turkumi – T.: "Navruz", 2019. – 576-b.
3. Xolmanova Z. "Boburnoma" leksikasi, Toshkent – 2007-yil.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma", Toshkent – 1989-yil.